

Umumta'lim maktabning 2025-2026 o'quv yili 9-sinf o'quvchilarining fizika fanini o'zlashtirish darajasini aniqlash uchun test, savol, masala va topshiriqlar varianti

9- __ sinf o'quvchisi _____

F.I.SH.

O'quvchi to'plagan umumiy ball: _____ (maksimal ball: 50)

BSB-1



I. OCHIQ TEST [8]

a) Mayda erimaydigan zarrachalarning suyuqlik yoki gaz ichida tartibsiz harakati..... deyiladi

b) Ideal gazning absolyut temperaturasi 3 marta ortganida, molekulalarining o'rtacha kvadratik tezligi necha marta ortadi?

c) Gaz 1-holatdan 2-holatga rasmda ko'rsatilgandek o'tkazildi. Bu qanday jarayon?

d) Grafikda bir xil massali ideal gaz uchun ikkita izoxora tasvirlangan. Gaz hajmlar taqqoslab, ular uchun to'g'ri munosabatni yozing.



II. MOSLASHTIRISH [4]


Gaz 1-holatdan 2-holatga rasmda ko'rsatilgandek o'tkazildi(rasmga qarang). Jadvalda berilgan fizik kattaliklarni holat o'zgarishlari bilan moslashtiring.

	Fizik kattaliklar		Holat o'zgarishlari	
	1	Bosim	K	ortadi
	2	Temperatura	L	Kamayadi
			M	o'zgarmaydi

1	2

III. BIR NECHTA JAVOBLI TEST [10]

a) Quyida keltirilgan grafiklarning qaysilari izoxorik jarayonni tasvirlaydi?



b) Izotermik jarayon ifodalangan javobni belgilang.

- 1) $T = \text{const}$; 2) $V = \text{const}$; 3) $p = \text{const}$; 4) $pV = \text{const}$; 5) $\frac{p}{T} = \text{const}$.

IV. MASALA [10]

2,5 mol miqdordagi ideal gaz 300 K harorat va 2 atm bosim ostida qancha hajm (l) ni egallaydi?

($R = 8,31 \text{ J/mol} \cdot \text{K}$)

Berilgan:

V. TAHLIL QILISH VA XULOSA YOZISH [18]

Farhod 80 ml li shprits va termometr yordamida shprits ichidagi havoni isitib, haroratning ortishi shprits porshenini harakatga kelishiga sabab bo'lishini aniqladi va o'lchov qiymatlarini qayd etdi.

Ma'lumotlar jadvalda keltirilgan:

Temperatura (°C)	Hajm (ml)
20	50
40	54
60	58
80	62



Oz miqdorda
havosi bo'lgan,
uchi berkitilgan
shprits

Jadvaldagi ma'lumotlarni tahlil qilib, Farhod qanday xulosa qilishi mumkinligi haqida yozing.

a) Havoning hajmi uning temperaturasiga qanday bog'liq?

b) Buni qanday jarayon deyish mumkin, nima sababdan?

c) Havo hajmining temperaturaga bog'liqlik grafigini chizing.

